

**WEB SAHIFA YARATISH TEXNOLOGIYASI
ТЕХНОЛОГИЯ СОЗДАНИЯ ВЕБ-СТРАНИЦ
WEB PAGE CREATION TECHNOLOGY**

Omonboyev Ismoil,

Farg'ona viloyati Farg'ona

transport va servis texnikumi,

Axborot texnologiyalari va energetika

kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: *mazkur maqolada so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda "Web-sahifa" yaratish bo'yicha e'lon qilingan ilmiy maqolalar tahliliga e'tibor qaratilgan. Xususan, Z.Komilovning "Veb sahifalar yaratishning dasturiy ta'minoti" maqolasi bu borada ahamiyatlidir. Zero Web-sahifa yaratish ish unumdoriligini oshishiga olib keladi.*

Kalit so'zlar: *internet, vev-sahifa, sayt, raqamli texnologiya, dasturlash.*

Аннотация: *данная статья посвящена анализу опубликованных в последние годы научных статей по созданию "Web-страницы" в социальных сетях. В Частности, З.Актуальна в этом отношении статья Камиловой "Программное обеспечение для создания веб-страниц". Создание нулевой веб-страницы приведет к повышению производительности труда.*

Ключевые слова: *интернет, vev-страница, сайт, цифровые технологии, программирование.*


Annotation: *this article focuses on the analysis of scientific articles published in recent years on the creation of a "Web page" on social networks. In Particular, Z.Komilova's article "software for creating web pages" is significant in this regard. Creating a Zero Web page leads to an increase in job productivity.*

Keywords: *internet, vev-page, site, digital technology, programming.*

Bugungi kunda hayotimizning har bir sohasida internet texnologiyalaridan foydalanmoqdamiz Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo'lmogda. Internet texnologiyalarining muhim elementlaridan biri bo'lgan Web- texnologiyalar ham taraqqiy etib boryapdi. Hozirda ixtiyoriy inson Veb- texnologiyalarning inson hayotining ta'lim, kommersiya, siyosat, ko'ngil ochar, bo'laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmogda. Veb-dasturlash fani asosida turli dasturlash tillari yordamida veb-saytlar yaratish mumkin.

Veb-sayt yoki shunchaki sayt (inglizcha: *website*; *web* – “to'r” va *site* – “joy”) deb kompyuter tarmog'idagi bir elektron manzilda joylashgan elektron hujjatlar majmuiga aytiladi. Elektron manzil domen yoki IP shaklida bo'ladi. Veb-saytni veb-sahifadan farqlash lozim: veb-sahifa veb-saytdagi sahifalardan biri, xolos. Veb-sahifalar orasidagi giperhavola sayt navigatsiyasini boshqaradi, bu ko'pincha bosh sahifadan boshlanadi. Omma uchun ochiq bo'lgan barcha veb-saytlar birgalikda Butunjahon Internetini tashkil qiladi. Bundan tashqari, faqat shaxsiy tarmoqda kirish mumkin bo'lgan shaxsiy veb-saytlar ham mavjud. Kompaniyaning o'z xodimlari uchun ichki veb-sayti, foydalanuvchilar ish stollari, noutbuklar, planshetlar va smartfonlar kabi turli xil qurilmalarda veb-saytlarga kirishlari mumkin. Ushbu qurilmalarda ishlatiladigan ilova veb-brauzer deb ataladi.

Web-sahifa o'zining qulayligi bilan ham muhimdir. Web-sahifa orqali kompaniya xizmatlar, buyurtma shartlari va aloqalar haqida batafsil ma'lumotlarni ommaga taqdim etishi mumkin. Web-sahifa mijozlarni xizmat yoki mahsulotlaringiz haqida yil bo'yi, kecha-yu kunduz xabardor qiladi. Siz o'z saytingizga havolani vizitkalar, suhbat davomida, reklama materiallari va kataloglarda, qidiruv tizimlarida va shu kabi turli ma'lumotnomalarda taqdim etishingiz mumkin.



Qolaversa saytdagi ma'lumotlarni o'zgartirish va yangilash ham juda oson. Bu avvalgi reklama bukletini modellashtirish, chop etish va mijozlarga yuborish kabi sarf-xarajatlarning oldini oladi. Web-sahifa kompaniya xodimlari va rahbarlarining o'zaro axborot almashinuv vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Agar siz hujjatlar, topshiriqlar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlarni saytga joylashtirsangiz, kompaniya rahbariyati va boshqa xodimlari kerakli ma'lumotlarni dunyoning istalgan nuqtasidan internet orqali olishlari mumkin bo'ladi.

Dastlabki Web-sahifalar juda sodda tuzilishga ega bo'lib, ular matnni formatlash va giperko'rsatkichlardan tarkib topgan edi. Web texnologiyalar rivojlanishi natijasida Web sahifalar tarkibida Plug-in dasturlar joylashtirila boshlandi, natijada Web sahifalarga inter faol xususiyati berildi. Web




texnologiyalarning rivojlanishining oxirgi natijalaridan biri bu skript tillaridir (Script Languages). Ularni ishlatishdan maqsad Veb serverining ishini engillashtirish, xar-xil ishlar uchun web serverini bezovta qilmasdan, bunday masalalarni foydalanuvchi kompyuterining o'zida yaratishdir. Web texnologiyaning

erishgan yutuqlaridan biri dinamik web sahifalardir. Dinamik Veb sahifalar CGI dasturlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, CGI dasturlari serverda joylashgan va server imkoniyatlarini ishlatuvchi dasturlardir. Ular serverga kelgan so'rovlarni qayta ishlaydi va qayta ishlash natijasida yangi Veb sahifa hosil bo'ladi. Hech bir web - saytni dasturiy modullarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Funktsional jihatdan qulay zamonaviy web – saytlar tuzish uchun ko'plab texnik vositalar va texnologiyalar mavjuddir. Web – saytlarni ishlab chiqish uchun quyidagi dasturiy instrumentlardan foydalanish mumkin : HTML, DHTML, JavaScript, XML/XSL, Java, Flash, PHP, Perl, SUBD MySQL.

Web-sahifa yaratish. Eng sodda web-sahifa odatda faqat matndan iborat bo‘ladi. HTML tilining buyruqlari < va > belgilari orasiga yoziladi va deskriptor yoki teg deb ataladi. Masalan, yozuvi (deskriptori) HTML tilidagi hujjatning boshlanishini anglatadi. Deskriptori esa HTML tilidagi yakunlash uchun qo‘llaniladi. Demak, HTML – oddiy matn muharririda deskriptorlardan foydalanib yoziladigan til. HTML – hujjat – deskriptorlar qo‘llanilgan HTML matnli fayl bo‘lib, u web-sahifani tashkil etadi. HTML – hujjat fayli nomining kengaytmasi “html” bo‘ladi. HTML – hujjatni web-brauzerlar yordamida xotiraga yuklansa, u ekranga web-sahifa ko‘rinishida chiqadi. HTML tili (muntazam) muttasil rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida web-brauzerlar ham yangilanib turibdi. Hozirgi kunda web-sahifa tayyorlash uchun asosan

HTML.4 tilidan foydalaniladi. Uning ba’zi buyruqlarini “eski” web-brauzerlar (Internet Explorer–3, Internet Explorer–4) bajara olmaydi. Bundan tashqari turli web-brauzerlar,



masalan, Internet Explorer va Netscape ham bir biridan bir oz farq qiladi. Shu sababli bitta HTML-hujjat turli web-brauzerlarda bir oz farq bilan aks etishi mumkin.

Web - dasturlash internet-texnologiyalarining yangi va tez rivojlanayotgan sohasiga aylangan. Web – sahifalarni tayyorlash va ularni internetda aks ettirishdan maqsad turli axborotlarni ma_lumotnoma sifatida berish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni reklama qilish, adabiy asarlar, musiqa va rasmlarni keng omma uchun tarqatish kabi masalalarni hal etishdir. Foydalanuvchilarga biror mavzudagi axborotni taqdim etuvchi sayt puxta o‘yangan, mukammal ishlangan va doimo yangilanib turuvchi axborotlarga ega bo‘lgan sahifalardan tashkil topadi. Hozirgi vaqtda web dasturlash sohasi kosmik tezlik bilan rivojlanmoqda. Yangi texnologiyalar va g‘oyalar maxsus kompaniyalar va korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilishi bilan birga oddiy dasturchilar tomonidan ham yaratilmoqda

Foydalanilgan manbalar:

1. Xokimovna, Komilova Zulxumor. “Veb sahifalar yaratishning dasturiy ta’minoti.” *Miasto Przyszłości* 31 (2023): 326-329..
2. <http://yangiqorgontxb.zn.uz/web-sahifa/>
3. <http://kompy.info/web-sahifa-yaratish-texnologiyalari.html>
4. Xokimovna, K. Z. (2023). Veb sahifalar yaratishning dasturiy ta’minoti. *Miasto Przyszłości*, 31, 326-329.